



GAZETA SARLAVHALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (KOREYS TILIDAGI MAQOLALAR ASOSIDA)

Sobirova Madina Baxramovna

O‘qituvchi – stajyor ALFRAGANUS UNIVERSITY

Annotatsiya: Mazkur tezis koreys tilidagi gazeta sarlavhalarining lingvistik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sarlavhalarining publitsistik matndagi o‘rni hamda tugallangan va tugallanmagan shakllari ko‘rib chiqiladi. Koreys gazeta materiallari asosida tugallanmagan sarlavhalarining ustuvorligi va ularning e‘tiborni jalb etishdagi ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: publitsistika, sarlavha, ekspressiv, tugallovchi qo‘shimcha

Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim axborot manbai sifatida faoliyat yuritmoqda. Axborot oqimining ortib borishi natijasida gazeta va boshqa davriy nashrlarda chop etilayotgan barcha materiallarni to‘liq o‘qib chiqish imkoniyati cheklanmoqda. Shu sababli o‘quvchilar, avvalo, gazeta maqolalarining sarlavhalari va pastki sarlavhalariga e‘tibor qaratadilar. Aynan sarlavha orqali matn mazmuni haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *sarlavha* “kitob, asar, maqola yoki ularning ayrim qismlarining nomini ifodalovchi so‘z yoki jumla” sifatida izohlanadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida sarlavhaning asosiy vazifasi o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish, matn mazmuniga qiziqish uyg‘otish va o‘qishni davom ettirishga undashdan iboratdir. Shu bois hozirgi gazeta sarlavhalarida ekspressivlik va ixchamlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Gazeta tilini o‘rganish jarayonida tadqiqotchilar sarlavhani matn mazmuni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim lingvistik birlik sifatida baholaydilar. Sarlavha matn mazmunining qisqa, lo‘nda va ta’sirchan ifodasidir. Gazeta sarlavhalarining lingvostilistik qurilishi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda ortiqcha so‘zlar, murakkab grammatik shakllar qo‘llanilmaydi; aksincha, aniqlik, ixchamlik va mazmuniy zichlik ustuvor hisoblanadi.

Gazeta matni sarlavhalaridagi gaplar tuzilishiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: tugallangan va tugallanmagan gaplar. Tugallanmagan shakldagi sarlavhalar odatda quyidagi turlarga bo‘linadi: kesimlik shakli tushib qoluvchi shakl, ot va ravish so‘z turkumlari bilan yakunlanuvchi shakl, bog‘lovchi, kelishik yoki yordamchi qo‘shimchalar bilan tugallanadigan shakl hamda gaplarni bog‘lovchi qo‘shimchalar bilan tugallanadigan shakllar⁶.

⁶ 이지영. 인터넷 기사 표제 표현 분석. 2007. 7 쪽



Bunday tasnif gazeta sarlavhalarining lingvistik xususiyatlarini ko'rsatadi va ularni tahlil qilishda tilning grammatik tuzilishini chuqur bilish talab etiladi.

Tugallanmagan sarlavhalarning birinchi turi - ot so'z turkumi bilan tugaydigan sarlavhalardir. Bunda kesim tarkibidagi 하다 yoki –이다 fe'llari tushib qoladi. Masalan:

“9 월 22 일 법원으로”... 소환장 받은 황태자
(22-sentabr kuni sudga”... chaqiruv qog‘ozini olgan valiahd shahzoda)

Mazkur sarlavhada 황태자 so‘zidan keyin –이다 tugallovchi qo‘shimchasi tushib qolgan.

Ikkinchi turga ravish bilan yakunlanuvchi sarlavhalar kiradi. Bunday sarlavhalarda ham kesim tushirib qoldiriladi:

하이포, 인천 한류 관광 콘서트 출격 ... 정상급 가수와 어깨 나란히
(Haipho Inchondagi Hallyu turistik konsertida chiqish qildi... yetakchi qo‘shiqchilar bilan yelkama-yelka).

Uchinchi tur — bog‘lovchi, kelishik va yordamchi qo‘shimchalar bilan tugallanadigan sarlavhalardir:

국제선도 지방공항에서
(Xalqaro reyslar ham mahalliy aeroportlardan amalga oshiriladi).

Bunday sarlavhalarni to‘g‘ri tushunish uchun fe‘l va sifatlarning qaysi qo‘shimchalar bilan bog‘lanishini bilish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi tur — gaplarni bog‘lovchi qo‘shimchalar bilan tugallanadigan sarlavhalardir. Bu holatda murakkab gapning faqat bir qismi berilib, ikkinchi qismi tushirib qoldiriladi:

비발디파크 정전 ... 리프트 멈춰서
(Vivaldi chang‘i kurortida elektr uzilib qoldi... lift ishlamay qoldi)

Mazkur sarlavhada voqea oqibatini ifodalovchi qo‘shimcha ma‘lumot (masalan, evakuatsiya) tushirib qoldirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, koreys tilidagi gazeta sarlavhalarida tugallanmagan gap shakllari ustuvor hisoblanadi. Bunday sarlavhalarni to‘g‘ri anglash uchun o‘quvchi koreys tilining grammatik tuzilishi, publitsistik uslubga xos leksik birliklar hamda tushirib qoldirilgan bo‘laklarni kontekst asosida tiklay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Mazkur tadqiqot natijasida koreys tilidagi gazeta maqolalari sarlavhalarida tugallanmagan gap shakllarining keng qo‘llanilishi aniqlandi. Ushbu holat sarlavhalarning ixchamligi, mazmuniy zichligi va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Tugallanmagan sarlavhalar gazeta matnining ta’sirchanligini kuchaytirib, o‘quvchini maqola mazmuni bilan tanishishga undaydi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лютая.А.А. Современный газетный заголовок: структура, семантика, прагматика: Автореф.дис канд.филол. наук. - Волгоград, 2008. Стр?
2. Maxmudova U.U. Zamonaviy xorijiy publitsistik matnlarda til va uslub muammolari: dis. – Qarshi, 2017. 85b.
3. 이지영. 인터넷 기사 표제 표현 분석: 국어교육연구, Vol.20, pp. 271-304. – 서울, 2007.

